

Uzbekistan Airways va Air India IATAning 81-Bosh assambleyasi doirasida interline kelishuvini imzoladi

2025 3 Iyun

Dehli shahrida o'tayotgan Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi (IATA) ning 81-Bosh assambleyasi doirasida O'zbekiston va Hindiston milliy aviatashuvchilari o'rtasida muhim kelishuv imzolandi. Uzbekistan Airways va Air India o'rtasida ikki mamlakat o'rtasida va keyinchalik butun dunyo bo'ylab qulay, to'siqsiz sayohat qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadigan interline-shartnoma imzolandi.

Kelishuv shartlariga ko'ra, Uzbekistan Airways yo'lovchilari Hindistonda (Indira Gandhi nomidagi xalqaro aeroport) Bangalor, Chennay, Haydarobod, Ahmadobod, Amritsar, Goa va Kochin kabi 30 dan ortiq yo'nalishlardagi Air India aviaqatnovlariga chiptalarni qayta rasmiylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday hamkorlik yagona chiptani bron qilish, bagajni birdaniga oxirgi manzilgacha ro'yxatdan o'tkazish va jo'nab ketish aeroportida butun yo'nalish uchun aviachipta olish imkonini beradi.

Uzbekistan Airways butun dunyo bo'ylab 90 dan ortiq yo'nalishlarga, shu jumladan MDH mamlakatlari aviakompaniyalari orasida yagona bo'lgan Toshkent – Nyu-York – Toshkent transkontinental yo'nalishiga parvozlarni amalga oshiradi. Bugungi kunda aviatashuvchi Toshkentdan Dehli va Mumbayga muntazam, shuningdek, Goaga mavsumiy aviaqatnovlarni amalga oshirmoqda.

Yangi shartnomaning ahamiyatini ta'kidlab, "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari Alisher Abduvoxobovich Sattarov quyidagilarni ta'kidladi:

"Air India bilan hamkorlik yo'lovchilarimiz uchun yangi ufqlarni ochadi. Ushbu kelishuv nafaqat yo'nalishlar tarmog'ini kengaytirish, balki Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida yanada integratsiyalashgan va qulay havo tizimini yaratish yo'lidagi muhim qadamdir. Ishonchimiz komilki, Air India bilan hamkorlik tufayli yanada ko'proq sayyohlar boy madaniyat, o'sib borayotgan sayyohlik va ishbilarmonlik salohiyatiga ega O'zbekiston va Hindistonni kashf etishlari mumkin."

Air India:

"Bizning yangi interlayn hamkorligimiz Air India'ning global ishtirokini sezilarli darajada kengaytiradi va yangi avlodning asosiy bozorlarida jadal rivojlanayotgan shaharlarga qulay yo'nalishlarni ochadi," - dedi Air India tijorat direktori Nipun Aggarwal. "Uzbekistan Airways bilan hamkorlik butun dunyo bo'ylab o'sib borayotgan auditoriyamiz uchun sayohat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va yo'nalishlarni yanada qulaylashtiradi, shu bilan birga Hindistonning muhim global aviatsiya markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi," - qo'shimcha qildi u.

Air India haqida

To'liq xizmat ko'rsatuvchi Air India xalqaro aviakompaniyasi va Air India Express mintaqaviy loukosterini o'z ichiga olgan Air India guruhi Hindiston aviatsiyasi tarixida yangi sahifa ochmoqda. Bugungi kunda Air India guruhi 30 000 dan ortiq xodimga ega bo'lib, 300 dan ortiq havo kemalarini boshqaradi va beshta qit'ada 55 ta mahalliy va 48 ta xalqaro yo'nalishlarda parvozlarni amalga oshiradi.

Uzbekistan Airways haqida

Uzbekistan Airways Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaga 90 dan ortiq yo'nalishlarda muntazam yo'lovchi tashuvlarini amalga oshiruvchi O'zbekiston milliy aviakompaniyasi hisoblanadi. Aviakompaniya tranzit imkoniyatlarini faol rivojlantirmoqda va yo'lovchilarga butun dunyo bo'ylab qulay va xavfsiz parvozlarni taqdim etish orqali yetakchi xalqaro tashuvchilar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda.